

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IZLANUVCHANLIK QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISH**

**Soatova Nasiba Jahonovna**

*Navoiy viloyati Karmana tumani*

*9-umumiy o'rta ta'lif maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag`batlantirish bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili istagini shakllantiradi. Bolada paydo bo`lgan faxrlanish o`z kuchiga ishonch hisslari bilimlarni o`zlashtirish va malakalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy kamponetlari: O'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etishi va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlanirishga qulay bo`lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim.*

**Kalit so'zlar:** *aqliy mehnat, boshlang'ich sinf, yetakchilik qobiliyati.*

**Abstract:** *The content of education The student's interest in acquiring knowledge is inextricably linked with a sense of satisfaction with the results of their intellectual work. This feeling is stimulated by the teacher and creates in the student a desire to work more effectively. The child's pride helps him to acquire knowledge and develop his skills. The process of teaching primary school children begins with an introduction to the main components of learning activities: learning situations, learning activities, monitoring and evaluation. In this regard, it is very important that all subject actions are carried out in an environment conducive to mental development.*

**Keywords:** *mental work, elementary school, leadership skills.*

**KIRISH**

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlanirish bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Bu ularga global mashhur sharoitida jadallik bilan o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda XXI asr ko'nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Izlanuvchanlik qobiliyatini o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishslash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlanirishga imkon beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Boshlang`ich maktabda o`qiyotgan bola uchun izlanuvchanlik, shaxsiy yutuqlari – o`qishda, sportda bolalar orasidagi nufuzi va obro`si katta ahamiyat kasb eta boradi. Eng muhimi, aynan bu davr axloqiy me`yorlarning ma`nosini tushunish, axloqiy qadriyatlarni o`zlashtirish va ma`naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun o`ta sezgir va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham kattalarga hurmat, kichiklarni e`zozlash, ota-onaga ehtirom ko`rsatish, Vatanni sevish, shaxsiy va ijtimoiy mulkka tug`ri munosabatlari hislari tarbiyalanadi. Bola jazo bilan rag`batlantirish o`rtasidagi farqni ajrata boshlaydi va nima qilib bo`lsa ham jazolanmasdan, ko`pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta`lim maskanida bolaning axloqiy va ma`naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o`zining sezilarli samarasini beradi. Maktablarda ham o`quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko`ra ortib bormoqda. Maktablар o`quvchilarni o`z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, izlanuvchanlik qobiliyatini namoyon etishlarida muhim o`rin tutadi. Maktablар o`quvchilarni o`zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o`zlarining muhim hissalarini qo'shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi. O`quvchining tasavvuri va qiziquvchanligi o'rganish jarayonini tezlashtirishi mumkin, bunda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish esa tushunishga va o`zlarining oldiga o'rganishdan qo'yilgan maqsad uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. O`quvchining maktabdagi o'rganishga bo'lgan qiziqishi va rag`batini oshirish uchun barcha o`quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o'rganish shakllari rivojlantirilishi lozim.

Bunday rivojlanish uslublari maktabda ta'lim olishga qiziqishlari sust bo'lgan o`quvchilarga yordam berib, ularga o`z fikrlarini ifodalash va oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi. Boshqa qobiliyatlar kabi izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish qobiliyati amaliy va maqsadli yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Ayrim o`qituvchilar uchun o`quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish ularni o`quv dasturida ko`rsatilgan fanlardan tashqari boshqa faoliyat turiga yo'naltirish bo'lib ko`rinishi mumkin. Aslida, o`quvchilar barcha fanlar kesimida kreativ fikrlay olishlari kerak. Izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish yodlatish usuli orqali o`qitishdan ko`ra o`quvchilarning izlanish va kashf qilish qobiliyatlarini rag`batlantiradigan yondashuvlar orqali asosiy bilimni egallashga undash bilangina rivojlantiriladi.

O`qituvchilar izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchisining hayoli o`z o`quv faoliyatining ta`siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tavarak - atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko`rsatmalilik, tasviriy san`at asarlarini yetarli darajada aks ettirish

bilan vujudga keladi. Ta`lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O`rganilayotgan Fan materiallari eshitilgan va o`qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari hayolning xususiyatlaridan yana bir hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o`zaro aralashib ketishidir. O`quvchilar xayolparastlikka, fantaziyaga berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchisining izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun dars mashg“ulotlari davomida turli xil zamonaviy metodlar, tezkor savol javoblar, guruhlarga bo`lingan holda hamkorlikda ishlash texnologiyasi, didaktik Pedagogik ta`lim klasteri: muammo va yechimlar o`yinlar, innovatsion texnologiyalarni qo`llagan holda tashkil etilsa, biz kutgan samarali natijalarni beradi. Interfaollik asosida o`tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o`quvchi chetda qolmaydi, ya`ni ular ko`rgan, bilgan, o`ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

O`quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to`g`ri yoki noto`g`ri bo`lishidan qat`iy nazar, tanqid qilinmaydi. O`quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o`zlashtirishda o`zlarining shaxsiy xissalarini qo`shish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro bilimlar, g`oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bunday holatlар o`zaro samimiyligini ta`minlaydi, yangi bilimlarni olish, o`zlashtirishga havas ortadi. Dars jarayonida bir – birlarini qo`llab – quvvatlash, o`zaro samimiylar, do`stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Boshlang`ich sinf o`quvchisining izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun, o`quv jarayonida o`quvchining o`z -o`ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.O`quvchi uchun dars qiziqarli o`qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O`qish jarayoniga ijodiy yondashuv, izlanuvchanlik, ijobiy fikr namoyon bo`ladi. Har bir o`quvchining o`zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.Interfaol usulda o`tilgan darslarda o`quvchi faqat ta`lim mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki o`zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Bunday sharoitda o`qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo`yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o`z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo`lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o`quvchi shaxsini rivojlantirish o`z – o`ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak.

O`zi mustaqil mutoala qilishi, o`qishi asosida bilim olishi;

O`zi-o`zini anglab etishga, anglab tarbiya topishga;

O`z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;

O`quv mehnatiga mas`uliyat xissi bilan qarashga;

O`z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g“animat bilishga;

O`quv mehnatiga o`zida hoxish, istak uyg“ota olishga;

**Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;**

Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Shuning uchun ham Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar hozirgi kunda o'quvchining o'zini o'zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida echimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

**XULOSA**

Xulosa qilib, boshlang'ich sinf o`quvchilariga ta`lim va tarbiya berish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yo`l topa olishi lozim. Vaholanki bola shaxsiga ta`limiy va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi

**REFERENCES:**

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod 2010 y
2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning kreativ fiklashini baholas, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi"-2021 y.
3. Davletshin M.G. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. T.: O'qituvchi , 1997. - 134 b.